

ZAMONAVIY SHAROITDA BOSHQARUV HISOBI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Kuchimova Madina

Suvonqulova Zarinabonu

Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Jahon iqtisodiyotining globallashuvi natijasida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish jarayonlari tubdan o'zgarib bormoqda. Raqobatning kuchayishi, bozorlarning to'yinishi va mahsulot hayot davrining qisqarishi xo'jalik yurituvchi subyektlardan samarali boshqaruvni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshqaruv hisobi korxonalar faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil etishda muhim o'rin tutmoqda. Boshqaruv hisobi zamonaviy usullar — “standart-cost”, me'yorlashtirilgan tannarx, o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar tahlili, marjinal daromad va operatsion foyda tahlili orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Uning zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari xo'jalik subyektlarida strategik boshqaruv, raqobatbardoshlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy globallashuv, boshqaruv hisobi, raqobatning kuchayishi, bozorlarning to'yinishi, standart-cost, me'yorlashtirilgan tannarx, o'zgaruvchan xarajatlar, doimiy xarajatlar, marjinal daromad.

Кирриш: Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining globallashuvi natijasida ishlab chiqarish, boshqaruv va marketing jarayonlari keskin o'zgarishlarga duch kelmoqda. Milliy iqtisodiyotlar o'zaro integratsiyalashib, xalqaro bozorlarning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bunday sharoitda raqobatning kuchayishi, bozorlarning to'yinishi, yangi va sifatli mahsulotlarning tez sur'atlar bilan paydo bo'lishi xo'jalik yurituvchi subyektlardan iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etishni talab etmoqda. Boshqaruv hisobi orqali rejalashtirish va budjetlashtirish, istiqbolni aniqlash, xarajatlarni samarali tashkil etish va ularni boshqarish kabi va shunga o'xshagan iqtisodiy faoliyatni

samarali tashkil etish bilan bog‘liq turli amaliyotlar amalga oshiriladi. Boshqaruv hisobi hisbning bugungi kunda tez rivojlanib borayotgan soxasi bo‘lib qolmoqda. Uning rivojlanish yo‘nalishlarini va uning tendentsiyalarni aniqlash boshqaruv hisobini tashkil etishda samaradorlikni ta‘minlashga va undan yuqori darajada foydalanishni ta‘minlaydi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda boshqaruv hisobi usullari takomillashib, “standart-cost”, me‘yorlashtirilgan tannarx, o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarni ajratish, marjinal daromad hamda operatsion foyda tahlili kabi ilg‘or yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu usullar korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, foydalilik darajasini oshirish va strategik boshqaruvni amalga oshirish imkonini beradi.

Адабиётлар тахлили: Boshqaruv hisobi va uning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlarini o‘rganish jarayonida bir qancha olimlar va tadqiqotchilarning fikrlari muhim ahamiyatga ega.

Horngren, Dadar va Foster (2003) boshqaruv hisobini “rahbariyat tomonidan ma‘lum bir davr uchun taklif etilayotgan harakatlar rejasining miqdoriy ifodasi va rejani amalga oshirish uchun nima qilish kerakligini muvofiqlashtirishga yordam sifatida” belgilashadi. Bu ta‘rif boshqaruv hisobining rejalashtirish va budjetlashtirish funksiyasini aniq ko‘rsatib beradi.

Taylor (1912) boshqaruvni samarali tashkil etish prinsiplarini ishlab chiqib, an‘anaviy bilimlar o‘rniga fan, qarama-qarshiliklar o‘rniga garmoniya, yakka mehnat o‘rniga hamkorlik va unumdorlikni maksimal darajaga chiqarishga e‘tibor qaratgan. Ushbu yondashuv zamonaviy boshqaruv hisobining asosiy tamoyillarini oldindan belgilab bergan.

Carr va Tomkins (1996) boshqaruv hisobini yangi hisob-kitob tizimi emas, balki asosiy strategik qarorlarni qabul qilishda tashkilotni xabardor qilish vositasi sifatida tushuntiradi. Ularning fikricha, boshqaruv hisobi xarajatlar va hisob-kitob ma‘lumotlarini strategik qarorlar qabul qilish jarayonida birlashtiradi.

“Boshqaruv hisobini tashkilotning ... bo‘limlarini faoliyatini rejalashtirish, boshqarish, monitoring qilish va baholash uchun lozim bo‘lgan axborotlar bilan ta’minlaydi”. (Baxrushina M.A., 2002)/

“Maqsadli xarajatlarni hisoblash jarayoni jamoaga asoslangan, turli bo‘limlarning vakillari qaror qabul qilish uchun yig‘iladigan faol muhit. Bu turli bo‘limlar o‘rtasidagi ma‘lumotlar bo‘shlig‘ining qisqarishiga olib keladi va bo‘limlar o‘z faoliyatining muhimligini anglab etganda, ularni yanada sezgir qiladi”. (Ansoriy S. va J. Bell, 1996).

Boshqaruv hisobining zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, global iqtisodiy sharoitda kompaniyalar samarali faoliyat yuritish uchun ilg‘or boshqaruv hisob tizimlaridan faol foydalanishga majburdir.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Boshqaruv hisobi xo‘jalik sub‘ektlarida ixtiyoriy tashkil etiladi va uning tashkil etish darajasi iqtisodiy faoliyatning xarakteri bilan belgilanadi. Bugungi boshqaruv hisobi avvalgi ishlab chiqarish hisobi bo‘lganligi bois, u hozirda xam ishlab chiqarish tendentsiyasidagi hisob tizimi sifatida tafsiflanadi. Boshqaruv hisobi iqtisodiy faoliyatning asosi bo‘lgan operatsion faoliyat bilan bog‘liq xarajatlarni tashkil etish bilan shug‘ullanmoqda. Shuningdek bugungi kunda dunyo iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlariga bog‘liq xolda u o‘z mazmunini bir oz o‘zgartirib, boshqaruvning bir funktsiyasi sifatida xam nomoyon bo‘lmoqda.

Global iqtisodiy sharoitda kompaniyalar samarali faoliyat yuritish uchun ilg‘or boshqaruv hisob tizimlaridan Tahlil asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlanadi:

1. Rejalashtirish va budjetlashtirish samaradorligi

“Standart-cost” tizimi va me‘yorlashtirilgan tannarx usullari rahbariyatga mahsulot tannarxini oldindan aniqlash, xarajatlarni rejalashtirish va kutilayotgan daromadlarni prognoz qilish imkonini beradi. Bu esa kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va resurslarni optimal taqsimlash imkoniyatini oshiradi.

2. Bo‘limlararo hamkorlik va ma‘lumot almashinuvi

Ansoriy va Bell (1996) ta'kidlaganidek, maqsadli xarajatlarni hisoblash jamoaviy faoliyatni rag'batlantiradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'limlar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi oshishi, xodimlar va bo'limlarning faoliyatga sezgirligi ortishi kompaniyaning umumiy samaradorligini oshiradi.

3. Direkt-kosting usulining afzalliklari

“Direkt-kosting” tizimi orqali faqat o'zgaruvchan xarajatlar hisobga olinadi, doimiy xarajatlar esa davr xarajatlarida aks ettiriladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, bu usul kompaniyaga qisqa muddatli rejalashtirishni optimallashtirish, mahsulot narxini aniqlash va sotishdan tushgan daromadni tezkor tahlil qilish imkonini beradi.

4. Milliy amaliyot va G'arbiy tizimlar integratsiyasi

Mamlakatimizdagi kompaniyalar G'arbiy “Standart-kost” tizimini keng qo'llashi, xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish orqali ishlab chiqarish va xarajatlarni hisoblash samaradorligini oshirishga erishgan. Bu esa boshqaruv hisobining global amaliyot bilan uyg'unligini va uning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xalqaro miqyosda boshqaruv hisobini targ'ib qilish, metodologiyasini takomillashtirish masalalari «Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (International Federation of Accountants, IFAC) qoshidagi Moliyaviy va boshqaruv hisobi qo'mitasi, AQShda Boshqaruv hisobi instituti (Institute of Management Accountants – IMA) va Buyuk Britaniyaning Boshqaruv buxgalterlari instituti (Chartered Institute of Management Accountants (CIMA))» tomonidan ko'rib chiqiladi. Qo'mita kompaniyalar uchun tavsiya etiladigan boshqaruv hisobi standartlarini ishlab chiqadi.

Ko'rinib turibdiki bugungi kunda boshqaruv hisobi rivojlanib borayotgan amaliyot bo'lib hisoblanadi. Boshqaruv hisobi uchun xususiy standartlar ishlab chiqilmagan bo'lsa xam, u buxgalteriya hisobi, iqtisodiy taxlil, marketing va ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirish bilan bog'liq usullardan keng foydalaniladi. Jaxon iqtisodiyotining globalashuvi o'z navbatida iqtisodiyotda tashkil etish va boshqarish jarayonlarining xam o'zgarishlariga olib kelmoqda. Ayniqsa ishlab chiqarishni tashkil etish va bozor bilan bog'liq faoliyatlar katta o'zgarishlarga sodir

bo'ldi. Milliy bozorlarning chegaralari o'zgarib ular xalqaro bozorlarning ma'lum qismlariga aylandi. Bozorlarda raqobatchilarning sonlari ko'payib, raqobatning kuchayishi yuz berdi. Yangi va sifatli maxsulotlarning ko'payishi maxsulot ishlab chiqarish jarayonlariga xam ta'sir ko'rsatib, samaradorlikni oshirishning zamonaviy usullarini joriy qilishni zaruriyatini yuzaga keltirdi. Maxsulotlarni ishlab chiqarishning xayot davrlarining qisqarishi maxsulotlarni takomillashtirish va yangilash jarayonlariga xam ta'sir ko'rsatdi. Bunday o'zgarishlar ishlab chiqarish sub'ektlarining ishlab chiqarish munosabatlarini zamonaviy usullarda tashkil etishi va boshqarishini taqozo etadi. Bunday sharoitda tarmoqda faoliyat olib borayotgan ishtirokchilar o'z foliyatlarida zamonaviy, iqtisodiy tomondan samarali bo'lgan usullar yordamida ko'tarishga xarakat qilmoqdalar. Boshqaruv hisobi paydo bo'lganiga ko'p bo'lmagan hisobning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u bugungi kunda xo'jalik sub'ektlarida boshqaruvning muxim funktsiyasi sifatida o'zini nomoyon qilmoqda. Boshqaruv hisobining zamonaviy usullar yordamida rivojlanishi xo'jalik sub'ektlari samaradorligini oshirishga katta rol o'ynaydi. Boshqaruv hisobining rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash va uni o'ziga xos tomonlarini tafsiflash ushbu ilmiy ishni oldiga qo'yilgan vazifa bo'lib hisoblanadi.

Хулоса:

Xuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi globallashuv davrida boshqaruv hisobi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ajralmas qismiga aylangan. Bu tizim nafaqat xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilish vositasi, balki strategik qarorlarni qabul qilish, resurslardan oqilona foydalanish va korxonada foydadorligini oshirishda muhim boshqaruv instrumentidir

Boshqaruv hisobining zamonaviy yo'nalishlari — “standart-cost”, “me'yorlashtirilgan tannarx” va “direkt-kosting” kabi tizimlar korxonalarga xarajatlarni aniqlik bilan rejalashtirish, og'ishlarni tezkor tahlil qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini bermoqda. Ayniqsa, bu tizimlar rahbariyatga byudjet va prognozlarni tayyorlash, mahsulot narxini aniqlash hamda strategik maqsadlarni samarali amalga oshirishda muhim yordam beradi.

Mamlakatimiz amaliyotida G'arbiy tajribalarga asoslangan boshqaruv hisobi tizimlarini joriy etish korxonalar boshqaruvini takomillashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda muhim o'rin tutadi. Shunday ekan, boshqaruv hisobining ilmiy asoslarini chuqur o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish bugungi iqtisodiy islohotlar sharoitida dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G' I. BERDIYEV, A. A. ABDUVOXIDOV, J. M. URAZMATOV, U. K. CHORSHANBAYEV. "Boshqaruv hisobi". Darslik. "Ziyo nashr-matbaa" XK. Guliston, 2025. – 301 b.
2. G' I. BERDIYEV, A. B. MUXAMETOV, A. A. ABDUVOHIDOV, U. K. CHORSHANBAYEV, G. Q. TURAYEVA, J. N. OTABEKOV. "Boshqaruv hisobi" "Ziyo nashr-matbaa" XK. Guliston, 2024. – 301 b. Эмерсон Г. Двенадцат принципов производительности труда. - М.: Экономика, 1972.
3. Xasanov B. Boshqaruv hisobi: Darslik/ Xasanov B., Xashimov A., Toshkent: Cho'lpon nomidani NMIU, 2013 - 312 b
4. Ansari, S., & Bell, J. (1996). Target Costing: The Next Frontier in Strategic Cost Management. New York: McGraw-Hill.
5. Harrison, J. (1950). Direct Costing Methodology and Its Applications in Management Accounting. Boston: Harvard Business School Press.
6. Available at: <https://www.researchgate.net/publication/331396512>